

O'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Xamrayev Zahriddin Xalimovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi

I bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Nurullayev F.G.**, p.f.f.d (PhD) dotsent, BuxDU

***Annotatsiya:** Estrada san'ati ko'p yillardan beri jahon va o'zbek san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. O'zbek san'atiga estrada va milliy estradaning kirib kelish jarayoni katta boy tarixga egadir. Ushbu maqolada o'zbek estradasining xalqimiz madaniy hayotida tutgan o'rni, tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan*

***Kalit so'zlar:** Estrada, musiqa, tovush, diapazon; tovush xususiyatlari; ijro etish texnikasi; nota tizimida o'qitish; ansambl; orkestr; musiqa maktabi.*

THE PLACE OF UZBEK POP ART IN THE CULTURAL LIFE OF THE PEOPLE

Khamrayev Zahriddin Halimovich

Turkestan New Innovation University, Master's student of Music Education
and Art, 1st stage

Scientific leader: Nurullayev F.G., Ph.D. (PhD), associate professor, BukhSU

Annotation: The article is devoted to the history of the art of the Uzbek stage, their educational role and place in the cultural life of the people, the formation of a form of musical performance.

Key words: Variety, music, culture, musical performance; sound; musical instruments; range; specificity of sounds; performing technique; ensemble; orchestra; School of Music.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan xam tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi, murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom

musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Yangilanayotgan O'zbekistonimiz xalqining musiqiy madaniy hayotida Estrada san'ati alohida o'rin tutadi.

O'zbek estrada san'ati kundan-kunga rivojlanib, o'z muxlislari sonini ko'paytirib bormoqda. Hozirgi kunda "estrada" nomi bilan yuritilayotgan musiqa namunalari tobora ko'plab tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda radio-televideniye va turli bayram tantanalari dasturlaridan keng o'rin olgan bu turdagi musiqa nafaqat yoshlarni, balki jamiyatimizning turli yoshdagi millionlab vakillari ongi va ma'naviyatiga sezilarli ta'sir o'tkaza boshladi.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmok zarur bo'ladi. Chunki bazi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini xam etirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya soxasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi. So'nggi 100 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu xolatlarga qaramay, o'tgan davrlar mobaynida ilm fan, san'at, jumladan, musiqiy madaniyat soxasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini extirof etish zarur.

O'zbek estrada san'ati mavzusiga qytadigan bo'lsak, musiqa madaniyatimiz ko'p yillik tarixga ega. Uning hozirgi kunda yo'nalishlari va janrlari kengayib bormoqda. Har bir san'atning o'z asosi bo'lganidek, o'zbek estradasining ham asosi professional qo'shiqchilikka asoslangan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq orasida «estrada», «estrada konsterti», «estrada san'ati» kabi atamalar iste'molga kirib kela boshladi. Bu Turkiston o'lkasining shaharlariga Rossiyadan gastrolga kelgan konstert guruhlarining chiqishlari bilan bog'liq edi.

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda tashkil etilgan «Ashula va raqs guruhi», «Mashshoqlar to'dasi», «Musiqiy etnografik ansambl»larning xalq ommasiga ko'rsatgan tomoshalarini «konsert», «estrada konserti» deb e'lon

qilish asta-sekin odat tusiga kirdi. Shu davrdan boshlab musiqachilar ahli va xalq orasida «konsert», «estrada», «ansambl» kabi atamalar xalq orasida ommalasha bordi. 1927-yili Ali Ardobus (Ibrohimov) Samarqand shahrida yosh havaskorlardan tuzgan «Ko‘k ko‘ylaklar» ansambl konsertini «estrada konserti» deb e‘lon qiladi.

O‘zbekistonda zamonaviy milliy estrada san‘atini tashkil etilishi va rivojiga Tamaraxonim (1906-1987) o‘zining ulkan hissasini qo‘shadi. O‘zbekistonda Yevropa uslubidagi estrada san‘atining turli xillari XX asming 40-yillaridan boshlab amaliyotga kirib keldi. Bu, asosan, Moskva va Leningrad shaharlarida bunyodga kelgan estrada orkestrlariga taqlid qilgan holda, rusiyzabon san‘atkorlarning tashabbusi bilan respublikamizning yirik korxonalari madaniyat saroylarida paydo bo‘ldi. 1940-yil Toshkent shahrida M. Jolkov rahbarligida «Myuzik xoll» estrada jamoasi va O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibida 1942-yili estrada ansambili, 1944-yili N. Zinin rahbarligida «Simfo-jaz orkestri» tuzdi. Ushbu ansamblarning ijro dasturi asosan rus kompozitorlarining qo‘shiq va cholg‘u musiqalaridan tuzilgan edi.

Estrada san‘ati O‘zbekistonda 1950-yillardan boshlab rivojlandi. Uning birinchi asoschilari Botir Zokirov va Enmark Salixovlardir. Shu kungacha san‘atning bu yo‘nalishida juda katta yutuqlarga erishildi. 1958-yili O‘zteleradio qoshida estrada orkestri tashkil qilindi. Kompozitorlar Sh.Ramazanov, I.Akbarov, E.Salixov, M.Leviyev, M.Burxonov, E.Qalandarov, V.Milov va boshqalar avval xalq folklor qo‘shiqlarini estrada yo‘nalishiga moslashtirib, keyinchalik esa o‘zlari shu yo‘nalishda ijod qila boshladilar. Ularning yozgan qo‘shiqlarini Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Yunus To‘rayev, Ra‘no Sharipova, Muhabbat Shamayeva va boshqa xonandalar kuylab ijod etganlar. Bu paytda mualliflik qo‘shiqlari bobida yetuk asarlardan biri Botir Zokirov ijrosidagi Mutal Burxonovning “Maftun bo‘ldim” asari bo‘ldi. Uning o‘sha yillar ijro qilgan “Go‘zal qiz”, “Arab tangosi”, “Muhabbat”, “Jayron” kabi turli millat qo‘shiqlari bugungi kun uchun ham namunaviy bo‘lib turgan yangicha ohang tizimi milliy estrada qo‘shiqchiligidagi noyob topilmalardandir. Hozirda turli uslubiy yondashuv orqali ushbu asar ijrosiga

estrada qo‘shiqchilarimiz murojaati fikrimizni tasdiqlaydi. Teatrlashtirilgan ssenariylar asosida konsert namoyishlarini tashkil etadilar. Eng muhimi o‘zbek estrada musiqasi ijrochiligi amaliyotida vokal-cholg‘u ansamblari tuzila boshlanadi, estrada xonanda va sozandalarining yangi avlodi tarbiyalanadi. Myuzik-xoll yosh xonandalar uchun haqiqiy estrada maktabi vazifasini o‘taydi.

E.Salixov, A.Kalvarskiy, E.Qalandarov, G. Xoliqov kabi kompozitorlar bu yo‘nalishda samarali ijod qiladilar. Estrada san‘atida yangi guruhlar va ijrochilar avlodi shakllanadi. Buning zaminida albatta o‘zbek estrada simfonik orkestrlarining samarali faoliyati, respublikada zamonaviy estrada musiqa san‘atini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan darvdan boshlab yaratilayotgan qo‘shiqlar Vatan, Istiqlol, tabiat, do‘stlik va muhabbat kabi mavzularda yozilgan.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov raisligida Milliy estrada san‘atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi tuzildi. Kengash badiiy-musiqiy jamoalar oldiga bir qancha asosiy vazifalar va talablar qo‘ydi.

Qo‘shiqlarda aks etgan milliylik g‘ururi, Vatanga sadoqat, milliy ohanglar tinglovchilar qalbida Vatan tuyg‘usini yanada jo‘sh urishiga zamin bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmadjonov A.I. “O‘zbekistonda estrada va milliy estradaning shakllanishi” *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal*. volume 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784.2022

2. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.

3. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

4. Amonov M. ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
5. Амонов М. Н., Хусенова С. С. РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ //СОВРЕМЕННОЕ ДЕТСТВО: ЗДОРОВЬЕ, РАЗВИТИЕ, БЕЗОПАСНОСТЬ. – 2021. – С. 137-140.
6. Amonov M. ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
7. Amonov M. О ‘QUVCHILARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI VA MEZONLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
8. Нуруллаев Ф. Г. Композиционный и исполнительский процесс в музыке //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 576-581.
9. Нуруллаев Ф. Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 48-50.
10. Нуруллаев Ф. Г. Импровизаторское творчество в хх веке по сфере музыки //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 582-587.
11. Болтаева З. З., Хомидов Х. К. ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 110-112.
12. Ortiqov O. R. O’QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA ANAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.